

URARTU DAVLATI

Olimov Ozodbek Odil o‘g‘li*Andijon Davlat Pedagogika Universiteti ‘Ijtimoiy
Gumanitar ‘‘yo‘nalishi 102-guruh 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Maqolada Urartu davlati haqida juda ko‘p ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, asosan bu davlat yurishlari Kavkaz orti davlatlariga bo‘lib ko‘plab yurishlarni amalga oshirgan. Urartu davlatining qudrati podshohlaridan biri Menua hisoblanib u haqida juda ko‘p maxsus yilnomalar qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Urartu, markazlashgan, podshohlik, diniy markazlar, qabilalar, Kavkaz orti, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchlik, yilnoma, iqtisodiy ahvol.

Milloddan avvalgi IXVI asrlardagi Old Osiyodagi qadimiy davlatlardan biri bu Urartu (Van Urartu) davlatidir. Qadimgi Urartu davlati Old Osiyodagi yuksak madaniyatli davlatlardan biri bo‘lgan. Urartu madaniyatining shakllanishi Ossiya, Mesopotamiya, Babil kabi qo‘shni davlatlar madaniyati bilan bog‘liq. Urartu davlati madaniyati Old Osiyo davlatlari madaniyatlari o‘rtasida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Urartu madaniyati ko‘p o‘rganilmagan bo‘lsada, uning bizga ma‘lum madaniy yodgorliklari katta ahamiyatga ega. Urartlar Mesopotamiyaning surat belgisi va mix ponasimon yozuvlaridan foydalanib o‘zlarining iyerogliflarini (yozuvlarini) yaratganlar. Bu yozuv rasm va belgilar bilan ifodalangan. Arxeologik izlanishlar davomida Qadimgi Urartu hududidan yozuv namunalari topilgan. Ayniqsa, Argishti I ning xor-xor yozuvi va Sarduri II ning katta yozuvi diqqatga sazovordir. Shu bilan birgalikda Van ko‘li yaqinidagi "Mehr eshigi", Karmir Blurdan topilgan dubulg‘a, sopol va jez idish ustiga bitilgan Urartu yozuvlari alohida ahamiyatga egadir. Hududdagi Tuproq-qal‘adan ham sopol parchalaridagi yozuvlar topilgan. Bu yozuvlarni M. Sibatyani, V. Nikolskiy, L.A. Orbeli va boshqa olimlar o‘rganganlar. Bu yozuvlar orqali Urartu davlatining tarixini, ijtimoiy iqtisodiy hayotini va madaniyatini o‘rganish mumkin. Urartu davlatida tarix, matematika, tabobat, geografiya, astronomiya fanlari ancha rivojlangan. Shu bilan birgalikda urartlar xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma adabiyotiga ancha boy bo‘lgan. Bu jihatdan M. Xorenning asarlari, Nard eposi, Dovud Sosoniy kabi dostonlar urartlar adabiyotining ajoyib namunalari. Urartu davlatida me‘morchilik va metallurgiya sohalari ham ancha rivoj topgan. Ustalar qal‘a devorlari, ibodatxona, shoh saroyini har xil rasm va haykallar bilan bezaganlar. Musasir (Musasin) ibodatxonasining Sargon saroyi devorlarida me‘morchilik namunalari saqlanib qolgan bo‘lib, badiiy nuqtai nazardan alohida ahamiyatga ega. Ushbu ibodatxona milloddan avvalgi IX - VIII asrlarda tepalik ustiga qurilgan. Bu ibodatxonaning tomining nishobi ikki tomonga qaraganligi, peshtoqli qilib va old tomonini bezash maqsadida oltita kolonna qo‘yib qurilganligi sababli, qadimgi yunon binolariga o‘xshab ketadi. Bu ibodatxona yunon binolarining Old Osiyodagi timsoli bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Ibodatxona kolonnalarining tag qismi saqlanib qolganligi arxitektura kolonnalar ishlatilganligini

ko'rsatadi. Bunday kolonnalar tag qismining ba'zi birlari Gruziyadagi muzeyda saqlanmoqda.

Urartuda taraqqiy etgan sohalardan yana biri bu metallurgiyadir. Uning taraqqiyotini bronzadan ishlangan bir qancha badiiy buyumlarda ko'rish mumkin. Jumladan, hashamatli taxtlarga o'rnatilgan haykalchalar, ya'ni boshi odam boshiga o'xshash qanotli ho'kiz haykalchalari alohida o'rin tutadi. Bu buyumlar mum qoliplarda bronzadan quyilgan, keyin esa unga naqshlar o'yilib, usti juda yupqa ishlangan taxta-taxta oltin bilan qoplangan, bu bronzadan yasalgan haykalchalarning tuzilishiga mos kelgan. Naqshlari aniq va rang-barang bo'lib tovlanib turgan. Haykalchalarning oq toshdan ishlangan yuza qismi va quymaqosh ko'zi hamda qanotlarning qizil bo'yoq yuritilgan botiq yerlari kishida juda ravshan taassurot qoldirgan. Haykaltaroshlarning jezdan ishlagan yarim odam, yarim hayvon qiyofasidagi haykali, ma'buda Teyshebuning haykalchasi, hosildorlik ma'budasining oltindan ishlangan medalionlari Urartu tasviriy san'atining nodir namunalari hisoblanadi. Metallardan buyumlar yasash plastikasida Urartu yaratgan bunday ajoyib va ifodali asarlar qadimgi Sharq xalqlari san'atida alohida muhim o'rinni egallaydi. Milloddan avvalgi VIII asrda Arin-berd tepaligida qurilgan qal'a xarobalaridan devorlarga chizilgan rasmlarning qoldiqlari topildi, bu rasmlar Urartu tasviriy san'ati to'g'risida bir qadar tushuncha beradi. Bu qoldiqlarga qaraganda, eni 1 metr gacha bo'lgan original va har xil ranglar berib ishlangan friz qadimgi zal devorlarini bezatgan. Bu frizda chopib ketayotgan echkilar, muqaddas hayot daraxti (bu muqaddas hayot daraxti oldida turib odamlar ibodat qilmoqdalar), ho'kizlar, qanotli gardishlar, nihoyat, o'simliklar tasvirlangan va geometrik naqshlar solingan. Bu badiiy syujetlar qadimgi sharq san'ati uchun tipik bo'lsa ham, lekin shu bilan birga, ular butun Urartu madaniyati uchun xarakterli bo'lgan alohida xususiyatga ega. Urartuning mahobatli san'atini bizgacha yetibtosh relyeflar, haykaltaroshlik, devoriy suratlar orqali o'rganish mumkin. Tosh haykallar 2 xususiyatga ega. Birinchisi, Old Osiyo san'ati an'analari bilan bog'liq Urartu haykaltaroshligi namunalari. Masalan, Vandan topilgan kulrang bazalt haykalda Urartuning ilk podshohlaridan biri tasvirlangan. "An'anaviy- shartli" uslub esa bronza davri an'alarini davom ettirgan. Urartuliklar amaliy san'at sohasida ham ulkan yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Urartu torevtikasining namunalari Kichik Osiyo, Egey dengizining bir qator orollari (Rodos, Samos), qit'a Yunonistoni (Delfa, Olimpiya), hatto Etruriyadan topilgan. Ibodatxonalarga qurbonlik sifatida xizmat qilgan va relyefli bezaklar bilan bezatilgan qalqonlar, sovutlar, dubulg'alar Urartu san'atining yorqin namunasidir. Urartuda shaharsozlik ham taraqqiy etgan. Arxeologik qazishmalar natijasida Teyshebani (Karmir Bilur), Eribuni (qadimgi Yerevan) va Argishtixinil (podsho Argimchi qurgan) shaharlari kuchli fortifikatsiya inshootlari bilan o'rab olingan. kelgn tosh relyeflar, haykaltaroshlik, devoriy suratlar orqali o'rganish mumkin. Ilk temir davridagi yirik podsholiklardan biri bo'lgan. Urartu so'zi ossuriycha bo'lib, urartcha – Biaynili, Bibliyada – Ararat podsholigi nomi bilan yuritilgan. G'arbiy Osiyodagi qadimgi davlat (mil. avv. IX-VI asrlar). Urartu davlati ravnaq topgan davrida Armanistonning tog'lik rayonlarini (hozirgi Armanistonning butun hududi, Turkiya va Eronning bir qismi) ni qamrab olgan. Aholisi asosan urartlar bo'lgan. Poytaxti – Tushpa shahri bo'lgan (hozirgi Turkiyadagi Van shahri) bo'lib, unda podsho Sarduri I davrida katta

qurilish ishlari olib borilgan. Mil. avv. IX asr oxiri – VIII asr birinchi yarmida Urartu davlati ravnaq topgan. Menuya, Argishti I va Sarduri II podsholiklari davrida Urartuning hududi ancha kengaygan. Bosib olingan viloyatlarda qal’alar qurilgan (Ararat tog’ining shimoliy yon bag’rida Menuaxinili shahri; Erebuni – Yerevan atrofidagi Arin-berd tepaligi; Araksning so’l qirg’og’ida Argishtixinili). Urartuda qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Mil. avv. VIII asr o’rtasida Ossuriya podshosi Tiglatpalasar III (mil. avv. 745- 727) Urartu qo’shinlarini bir necha marta mag’lubiyatga uchratgan va Urartu davlati tarkibiga kiruvchi Shimoliy Mesopatamiya va Shimoliy Suriyani egallagan. So’ngra Rusa I davrida Sargon II boshliq Ossuriya qo’shinlarining yurishlari natijasida mamlakat xonavayron bo’lgan. Biroq mil. avv. VII asrda Urartu Janubiy Zakavkazda hali ham o’z mavqeini saqlab qolgan edi. Rusa II (mil. avv. 685-645) bu yerda yangi qal’alar bunyod etgan (jumladan Teyshebaini). Skif-kimmeriy yollanma qo’shini yordamida Urartu podsholari Frigiya podsholigini tor-mor qilganlar (mil. avv. 676 y.). Midiya podsholigining kuchayishi Urartuni Ossuriya bilan yaqinlashtirgan. Biroq mil. avv. VI asr boshida Urartu Midiya tomonidan tor-mor etilgan va uning tarkibiga qo’shib yuborilgan. Teyshebaini Urartu davlatining yirik markazi (mil. avv. VII-VI asrlar) bo’lib, bugungi kunda Yerevan shahridagi Karmir-Blur tepaligida qal’a xarobalari sifatida saqlanib qolgan. Mahobatli inshoot qoldiqlari (150 ga yaqin xona – ustaxonalar, omborxonalar, don omborxonalari (750 t gacha don saqlangan), vino saqlanadigan yerto’lalar (8 ta) va b.) aniqlangan. Qal’a atrofida to’g’ri rejalashtirilgan shahar joylashgan. Teyshebainidan ko’plab qurol-aslahalar (jumladan Urartu podsholriga tegishli serbezak dubulg’alar, sadoqlar, qalqonlar, qilichlar va b.), san’at buyumlari, taqinchoqlar, mixxat yozuvlari, Teyshebaning bronzadan ishlangan haykalchasi topilgan. Mil. avv. 585 yilda Teyshebaini mahalliy va skif qabilalari tomonidan vayron etilgan. Teyshebainida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida bug’doy, arpa, kunjut donlari topilganligi Urartu aholisining asosiy mashg’uloti dehqonchilik bo’lganligidan darakdir. Bog’dorchilik va uzumchilik ham xo’jalikning asosiy tarmoqlaridan bo’lgan. Qazishmalar jarayonida olcha, olma, behi, anor, uzum, yong’oq, shaftoli, shuningdek tarvuz urug’lari topilgan. Vino saqlanadigan 400 ta maxsus idishlar - karaslar (har birining sig’imi 800-1200 litr) topilgan. Erebuni (Yerevan atrofidagi Arin-berd tepaligi) shahri xarobalarida olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida toshda o’yib yozilgan yozuv topiladi, unda: “Xalda xudosi panohidagi Argishti, Menuaning o’g’li, bu qal’ani qurdirib, shaharga Erebuni nomini berib, Biayna (Urartu) va boshqa mamlakatlardagi shaharlardanda mustahkam. Shahar o’rnida avval hech nima yo’q edi, men bu yerda Xate va Supanidan 6600 askar olib keltirib uni bunyod ettirdim”, deb yozilgan. Qadimgi urart tilidagi Erebuni hozirgi Yerevan nomi bilan bog’liq bo’lib, Armaniston poytaxtining yadrosi sifatida qadimgi shaharlardan biri hisoblanadi. Erebuni shahri xarobalarida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida asosi tog’ toshlari va xom g’ishtdan qilingan mustahkam mudofaa devorlari bilan o’ralgan qal’a (5 m balandlikda saqlanib qolgan) ochib o’rganilgan. Yuqorida qayd etilgan toshdagi yozuv qal’aga kirish qismida saqlanib qolgan, bundan tashqari yana 21 ta qal’adagi saroy, ibodatxona va boshqa binolarning qurilishi bilan bog’liq ma’lumotlardan iborat mixxat yozuvlari topilgan. Qazuv ishlari davomida saroy va ibodatxonadagi zallarda ossuriy

uslubdagi to‘rt xil rangdan iborat suratlar chizilganligi aniqlandi. Shaharning Urartu davriga oid madaniy qatlami nihoyatda yomon saqlangan. Shunday bo‘lsa-da, qazuv ishlari natijasida ko‘plab kulolchilik charxida tayyorlangan sopol idishlari va ularning parchalari, vino saqlanadigan katta sopol idishlar, ossuriy uslubida yasalgan urart muhrlari, turli xil bronzadan qilingan taqinchoqlar, aqiq, feruza va shishadan qilingan munchoqlar topilgan. Arin-berdda olib borilgan tadqiqotlar davomida yuzdan ortiq bronzadan ishlangan skif kamon o‘qlariga o‘xshash o‘qlar topilgan, shuningdek temirdan yasalgan turli hajmdagi o‘qlar ham uchraydi. Erebunidan topilgan kamon o‘qlari qo‘shni Teyshebainidagidan nisbatan qadimyroqdir. Agar shaharga asos solingan yilni qadimgi mixxatdagi ma’lumotlardan kelib chiqib mil. avv. 782 yil deb hisoblasak, unda Yerevan shahrining yoshi 2750 yil, ya’ni mil. avv. 754 yilda asos solingan Rim shahridan ham katta ahamiyatga ega.

Urartu davlatida amal qilgan urart tili bugungi kunda o‘lik til hisoblanib, mil. avv. IX-VI asrlarga mansub o‘yma yozuvlar (mixxat) orqali ma’lum. Hozirgi Van ko‘li atrofiga, sharqroqda Urmiya ko‘ligacha, qisman Armaniston Respublikasi hududida tarqalgan. Yozuvi akkad mixxatining soddalashtirilgan tizimidan iborat bo‘lib, 16-17 undosh va 4 ta unlini farqlash mumkin. Urartu tilida yozilgan ko‘plab yodnomalar (500 dan ortiq) dastlab XIX asrning 20-yillarida nemis arxeologlari tomonidan Van ko‘li (Turkiya) atrofidan topilgan.

Xulosa qilib aytganda, Urartlar madaniyati bir qancha xalqlar madaniyati bilan bog‘liq xolda shakllangan. Ya’ni urartlar boshqa xalqlar madaniyatining yuksak yutuqlaridan foydalanganlar. Urartlar ossuriyaliklar va mesopotamiyaliklardan mixxatni olib, o‘zlari uchun soddalashtirib, birmuncha mukammallashtirganlar. Urartlarda metallurgiya va tasviriy san’at sohalari ossurlar va xetlarning metal buyumlar ishlash texnikasi va badiiy ijodi bilan juda yaqin xolda rivojlangan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. V.I.Avdiev Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent 1964.
2. A. Kabirov Qadimgi sharq tarixi. Toshkent-2018.
3. R. Rajabov Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent-2009.
4. C.A. Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда "Зафарнома"дан фойдаланишни имкониятлари. Science and Education. 1(7). 192-198
5. Сулаймон Амиркулович Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8).
6. Ҳайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. Academic Research in Educational Sciences. 1 (3). 1313-1321.